

**MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM TIZIMIDA
MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARINING O'RNI VA AHAMIYATI
(Navoiy viloyati misolida)**

Xalilov Bahodir Shirinboyevich,

Navoiy dalat konchilik va texnologiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar
fanlar kafedrası o'qituvchisi
O'zbekiston, Navoiy viloyati, Navoiy shahri

Annatsiya. Ushbu maqolada Navoiy viloyati misolida maktabdan tashqari ta'lim tizimida musiqa va san'at maktablarining bolalarning sog'lom tarbiyasidagi, yaxshi ta'lim olishidagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, san'at, ta'lim, iste'dod, tarbiya, maktabdan tashqari ta'lim

Bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchi-yoshlarning qiziqish va istedodlarini, ijodiy imkoniyatlarini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan **musiqa** (*fortepiano, torli cholg'ular, estrada cholg'u ijrochiligi, xalq cholg'ulari, damli va zarbli cholg'ular, an'anaviy cholg'u ijrochiligi, an'anaviy xonandalik, akademik xonandalik, estrada xonandaligi*) va **san'at** (*xoreografiya, teatr san'ati, tasviriy va amaliy san'at*) yo'nalishlarida faoliyatini amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 5 maydagi "Bolalar musiqa va san'at maktablari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qaroriga asosan Bolalar musiqa va san'at maktablari to'g'risida Nizom tasdiqlangan. Ushbu Nizomning 1-moddasida Bolalar musiqa va san'at maktablari uzluksiz ta'lim tizimining majburiy bo'lmagan turi hisoblangan, maktabdan tashqari ta'lim berishga mo'ljallangan ta'lim tizimi ekanligi belgilangan¹. Ushbu maktablardagi o'qish muddati ijodiy yo'nalishga asosan 5-7 yilni tashkil etadi hamda ularga 6-8 yoshli bolalar o'qishga qabul qilinadi. O'quvchilar ushbu maktablarda maktabdan tashqari, bo'sh vaqtlarida o'qiydilar. Bolalar musiqa va san'at maktabida ta'lim olish to'lov asosida amalga oshiriladi. Ayrim hollarda o'quvchilar belgilangan talablar asosida to'lovlardan ozod etiladi.

O'zbekistonda 320 tadan ortiq bolalar musiqa va san'at maktablari (2024 yil holatiga ko'ra) mavjud bo'lib, ularda 100 ming atrofida o'quvchilar musiqa va san'at

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 5 maydagi "Bolalar musiqa va san'at maktablari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 18-son.

sohalari bo'yicha maktabdan tashqari raivshda tahsil olmoqda. Navoiy viloyatida 11 ta bo Bolalar musiqa va san'at maktabi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ular quyidagilar:

1. Navoiy shahar 1-son Bolalar musiqa va san'at maktabi
2. Navoiy shahar 8-son bolalar musiqa va san'at maktabi
3. Zarafshon shahar 7-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi
4. Karmana tumani 2-son Bolalar musiqa va san'at maktabi
5. Uchquduq tumani 10-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi
6. Navbahor tumani 11-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi
7. Qiziltepa tumani 13 sonli bolalar musiqa va san'at maktabi
8. Konimex tuman 4-son bolalar musiqa va san'at maktabi
9. Xatirchi tumani 6-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi
10. Tomdi tuman 12-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi
11. Nurota tumani 5-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi

Navoiy viloyatining Tomdi tumanida 2015 yil 12-bolalar musiqa va san'at maktabi foydalanishga topshirildi. Ushbu maskan tomdilik san'atsevar yoshlarga o'z iqtidorlarini namoyon etuvchi maskanga aylandi. Mazkur muassasada konsert zali, hovlida mo'jaz amfiteatr barpo etildi. Maktab zamonpviy milliy va Yevropa cholg'u asboblari, sohaga oid o'quv adabiyotlari bilan ta'minlandi².

Navoiy viloyati musiqa va sa'nat maktablarida tahsil olayotgan o'quvchi-yoshlar nafaqat tuman, shahar va viloyat miqyosidagi tadbir va tanlovlarda balki hududiy va Respublika tanlovlarida ham faol ishtirok etishadi. Xususan, 2021 "Iste'dod egalari" Respublika ko'rik-tanlovining hududiy saralash bosqichida 150 dan ortiq 17 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchi-yoshlar o'z iste'dodlarini namoyon etishdi. Tanlovning respublika bosqichida Navoiy viloyatidan 4 nafar ishtirokchilar qatnashdi. Shundan "Eng yaxshi dizayn" yo'nalishida Navoiy shahar 1-son bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchisi Qo'ldosheva Asaloy, "Eng yaxshi an'anaviy xonanda" yo'nalishida Sadullayeva Maftuna g'olib deb topildi. Shu yili 2021 yil 4 may kuni Navoiy shahrida Bolalar musiqa va san'at maktabi o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan "San'at yo'nalishi" bo'yicha respublika tanlovining Navoiy viloyat bosqichi bo'lib o'tdi. Unda g'olib bo'lgan 10 nafar ishtirokchi yoshlarimiz respublika tanlovida ishtirok etish imkoniyatini qo'lga kiritdi va Navoiy viloyati Madaniyat boshqarmasining diplom hamda estalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi. Jumladan, "Tasviriy san'at grafikasi bo'yicha" Xatirchi tuman 9-son bolalar musiqa va san'at maktabi

² Tomdi tumanida yangi san'at maktabi // <https://uza.uz/posts/117062>

o'quvchisi Mardiyeva Muxlisa Zokir qizi Navoiy viloyat bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

2025-yil yanvarda Karmana tumani 2-son Bolalar musiqa va san'at maktabi Fortepiano bo'limi o'quvchisi Shahnoza Davronova Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Yangi yil yulduzlari" respublika musiqiy va ijodiy tanlovida faxrli 2-o'rinni qo'lgan kiritdi³. Shu yili 25-27 mart kunilari Buxoro viloyatida bo'lib o'tgan "Buxoro Sadolari" Respublika yosh ijodkorlar tanlovida Karmana tumani 2-son Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilari faol ishtirok etib, turli yo'nalishlarda faxrli o'rinlarni qo'lga kiritishdi. Xususan, Salomov Sarvar 1-o'rin, Kabulova Umida 2-o'rin, Saidova Muharram 2-o'rin, Namoroz Jahongir 2-o'rin, "Nihol" raqs ansambli 3-o'rin, Ikromov Anvar 2-o'rinlarni qo'lga kiritishdi. Shuningdek, Nematullayeva Faridabonu 3-o'rinlarni qo'lga kiritishdi.

Viloyatdagi bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilari xalqaro miqyosdagi turli tanlovlarda ham ishtirok etishib, faxrli o'rinlarni qo'lga kirtmoqdalar. Jumladan, 2024-yil 6-8-noyabrda Navoiy shahar 8-son Bolalar musiqa va san'at maktabi estrada xonandalik sinfi o'quvchisi Timurbek Ro'zimurodov Toshkent shahrida bo'lib o'tgan «Musiqqa hayoti» deb nomlangan 7-xalqaro ko'rik tanlovida ishtirok etib g'oliblikni qo'lga kiritdi. Shuningdek, 2024 yil Ozarbayjon Respublikasi poytaxti Baku shahrida bo'lib o'tgan "Biz baxtli bolalarmiz" nomli xalqaro ko'rik tanlovida Navoiy shahar 8-son bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchisi Tursunova Go'zal Ulug'bek qizi ishtirok etib, faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi. 2025 yil Ozarbayjon Respublikasi Baku shahrida bo'lib o'tgan "Ozarbaijan grand festival" Xalqaro tanlovida Navoiy shahar 1-son bolalar musiqa va san'at maktabining o'quvchilari ishtirok etib yakka ijro yo'nalishi bo'yicha Dilbar va Dilobar Muxtorovalar faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdilar.

Viloyatda foliyat olib borayotgan Bolalar musiqa va san'at maktablari tuman, shahar va viloyat miqyosidagi turli tadbirlar, jumladan, Navro'z, Yangi yil, Mustaqillik kuni, 8-mart – xalqaro xotin-qizlar kuni kabi umumxalq bayramlari, turli madaniy festivallarda o'z chiqishlari bilan faol ishtirok etmoqdalar. Navoiy shahri va Xatirchi tumanida faoliyat olib borayotgan Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilari va ularning ota-onalari bilan olib borilgan suhbat natijalaridan ma'lum bo'ldiki, ushbu maktablarda o'quvchilar nafaqat kelajakda ushbu sohaga oid kasb egasi bo'lishni, balki o'zlarining musiqa va san'atga qiziqishlarini yanada rivojlantirish uchun tahsil olayotganligini ham ta'kidlashdi. Shuningdek, ular

³ Кармана овози. 2025 йил январь.

kelajakda boshqa sohaga oid kasb egasi bo'lsalar ham o'zlarining qiziqishi sifatida musiqa va san'atni davom ettirishi mumkinligini qayd etdi⁴. Bu so'rovlar natijasi viloyatda Bolalar musiqa va san'at maktablarida tahsil olayotgan o'quvchi-yoshlarning san'atga bo'lgan hurmati, badiiy-estetik tafakkuri ham o'sib borayotganligini ko'rsatadi. Viloyatda faoliyat olib borayotgan Bolalar va o'smirlar maktablari o'quvchilar maktabda fan yo'nalishida ham yaxshi natijalarni qo'lgan kirtmoqdalar. Shuning bilan birga maktabdan tashqari o'z qiziqishlari doirasida ushbu maktablarda bilim va malakalarini yanada oshirishga harakat qilmoqdalar. Biroq ushbu maktablarning aksariyati tuman va shaharlar markazlarida joylashgan. Tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovlar natijalaridan ma'lum bo'ldiki, viloyat aholisning ko'pchiligi o'z tumani yoki shahridagi Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatidan yaxshi xabardor emas. Ularning o'quvchilari qo'lga kiritayogan natijalar haqida axborotga ega emas. Respondentlarning aksariyati 50%dan ortig'i o'z farzandlarida musiqa va san'at yo'nalishida iqtidor borligini sezishi biroq, ularni qayerda yanada rivojlantirish mumkinligi yoki aynan Bolalar musiqa va san'at maktabida maktabdan tashqari ta'lim olish imkoniyati mavjudligidan mutlaqo bexabar. So'rovnoma ishtirokchilarining 5% maktab yoshidagi farzandlarini ushbu maktablarga jalb qilish haqida o'ylab ko'rmagani, 5% mablag' to'lash imkoniyati yo'qligini, 25% ota-onalar ushbu maktablar yashash joyidan uzoqligi bois imkoniyati yo'qligini, 15%i esa bu savolga umuman befarqli kuzatildi⁵. Xulosalardan ma'lum bo'ldiki, viloyatda faoliyat olib borayotgan Bolalar musiqa va sport maktablari faoliyati targ'ibotini ommaviy axborot vositalari, jumladan, radio, televideniye, gazetalar orali targ'ib etish, tuman, shahar, respublika va xalqaro miqyosda faxrli natijalarga erishgan o'quvchilarni ko'proq yoritish maqsadga muvofiq. Eng samarali targ'ibot vositalari esa bu shubhasiz – internet vositalari, xususan ijtimoiy tarmoqlardir. Kuzatuvlardan ma'lum bo'ldiki, aksariyat Bolalar musiqa va san'at maktablarining ijtimoiy tarmoqlarda sahifalari mavjud emas. Viloyat Madaniyat boshqarmasi orqali har bir Bolalar musiqa va san'at maktablarining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini ochish doimiy ravishda o'z faoliyatini yoritib borish, shuningdek, ma'lum yutuqlarga erishgan o'quvchilarni yoritish ularning tengdoshlarini ham ushbu maktablarga kengroq qamrab olish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bu Bolalar musiqa va san'at maktablari moddiy imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishga ijobiy turtki bo'ladi.

⁴ Navoiy sha'xi va Xatirchi tumanlari dala tadqiqotlari. 2023 yil mart oyi.

⁵ Navoiy sha'xi, Xatirchi va Karmana tumanlarida utkazilgan s'rovno. 2023 yil noyabr.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 5 maydagi "Bolalar musiqa va san'at maktablari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 18-son.
2. Tomdi tumanida yangi san'at maktabi // <https://uza.uz/posts/117062>
3. Кармана овози. 2025 йил январь.
4. Навоий шаҳри ва Хатирчи туманлари дала тадқиқотлари. 2023 йил март ойи.
5. Навоий шаҳри, Хатирчи ва Кармана туманларида ўтказилган сўровнома. 2023 йил ноябрь.